

Z AVLOD DEMOGRAFIK VA PEDAGOGIK KONVERGENSIYA KONTEKSTIDA

Dildoraxon Qobilovna Malikova

T. N. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika

fanlari ilmiy-tadqiqot instituti, mustaqil izlanuvchi

e-mail: soul_db@mail.ru

Tel: 974042050

Annotatsiya:

Maqolada dunyo miqiyosida intensiv ko‘lamda quloch yozayotgan raqamli texnologiyalar asrida indigo bolalar, g‘ayrioddiy iqtidorli, o‘ziga xos falsafiy dunyoqarashga ega, ijodkor va “qo‘lida gadjet bilan tug‘ilganlar” aynan Z avlod haqida fikrlar yuritilgan. Xususan, jamiyat rivojida, avvalo, farzandlarimizni bilimli, salohiyatli bo‘lishi, bola tarbiyasi – jamiyat tarbiyasi ekanligini haqida pedagog olimlar fikrlari, hamda raqamli avlod vakillarining mulohazalari dalillar bilan taxlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Z avlod , demografik va pedagogik konvergensiya, kreativ ijodiy makon, indigo bolalar.

Introduction

Ta‘lim tizimi samaradorligiga ta‘sir etuvchi asosiy harakatlantiruvchi kuchlardan biri bu zamonaviy texnologiyalardir. Ma‘naviy-axloqiy yetuk, har tomonlama sog‘lom shaxsni shakllantirish, jahon talablariga javob bera oladigan raqobatbardosh kadrlarni yetishtirib berish ota-onalar va o‘qituvchilar oldidagi eng muhim burchdir. Insonni mohiyati uning ma‘naviyati va hulqi bilan belgilanadi.[1,7]

Raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan axborotlashgan asrda undan foydalanmaslikning iloji yo‘q. Uning imkoniyatlari va qulayliklari barchaga ma‘lum. Internet XXI asr kishisi uchun kasbiy, biznes, ijodiy va shaxsiy g‘oyalar hamda qarashlarni ifoda etishga ko‘mak beruvchi axborot maydoni. Global tarmoq deyarli barcha turdagi va sohalardagi faoliyatni onlayn formatda amalga oshirishning eng maqbul vositasi hamdir. XXI asrning axborot sivilizatsiyasi yangi raqamli avlodni – YouTuberlar, Instagramerlar, TikTokerlar va boshqalarni vujudga keltirdi.

Mutaxassislar Z avlod vakillarining mamlakatlar iqtisodiyotini yanada ko‘tarishlari va umuman kutilmagan, olamshumul o‘zgarish qilishlariga ishonishmoqda. Chunki indigo bolalar, g‘ayrioddiy iqtidorli, o‘ziga xos falsafiy dunyoqarashga ega, ijodkor va “qo‘lida gadjet bilan tug‘ilganlar” aynan Z avlodga mansub.

Har bir avlodga mansub kishilarning o‘z qadriyatlarini, odatlari va o‘ziga xos fe‘l-atvori borligi haqida ko‘pchilik o‘ylamagan bo‘lsa kerak. 1991 yilda amerikalik olimlar Neyl Xou (Neil Howe) va Vilyam Shtraus (William Strauss) tomonidan ushbu holat o‘rganilib, avlodlar nazariyasi yaratildi[2]. Unga ko‘ra, har 20-25 yilda insonlarning yangi avlodi dunyoga keldi. Ularning avlodlar nazariyasiga ko‘ra:

Yo‘qotilgan avlod: 1880-1900 yillarda tug‘ilgan.

Buyuk avlod, g‘oliblar avlodi: 1901-1924 yillarda tug‘ilgan.

Jim avlod: 1925-1945 yillarda tug‘ilgan.

Baby Boomerlar avlodi: demografik portlash davrida 1946-1964 yillarda tug‘ilgan.

X avlod, noma'lum avlod: 1965-1982 yillarda tug‘ilgan.

Y avlod, milleniallar: 1982-1995 yillarda tug‘ilgan.

Z avlod, zumerlar[3]1995–2010 yillarda tug‘ilgan.

Alfa avlod: 2010-2025 yillarda tug‘ilgan.

Mazkur avlodlarning davriy chegaralari nisbiy bo‘lib, turli mamlakatlarda sanoatlashtirish va iqtisodiy rivojlanish sur‘atlari hamda ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarga qarab 5-6 yilga farq qilishi mumkin.

Qo‘lida smartfon bilan dunyoga kelgan raqamli avlod

Raqamli avlod deb 1995–2010 yillarda tug‘ilgan **Z** avlod va 2010-2025 yillarda tug‘ilgan **Alfa** avlod vakillarini aytishadi. Boisi, ular raqamli texnologiyalar tezkor rivojlanayotgan davrda dunyoga kelgan planshet iPad, VR va 3D reallikni faol qo‘llaydigan avloddir.

Raqamli avlodga quyidagi xususiyatlar xos:

- juda yosh
- butunlay raqamli
- ular internet va ijtimoiy media asrida tug‘ilgan
- eng so‘nggi rusumdagi texnik moslamalar bilan deyarli to‘liq ta‘minlangan
- yuksak intellektual salohiyat
- ijodiy tafakkur
- yangi reallikka tez moslashuvchanlik
- tadbirkorlik

Ba‘zida raqamli avlod vakillarini IGen (Internet generation) – internet-avlod deyishadi. Chunki, ular hayotini internet va smartfonsiz tasavvur qila olishmaydi. Global tarmoqda o‘sayotgan Z avlodning yashash makoni bu virtual dunyodir. Ular jonli suhbat o‘rniga tarmoqdagi matnli muloqotni (ko‘pincha hech qachon ko‘rmagan “do‘stlari ” bilan ham) afzal ko‘rishadi.

Inson uchun hech ish qilmay, biror mashg‘ulot bilan band bo‘lmay vaqt o‘tkazishdan qiyin azob yo‘q. Maqsadli kishi ishdan so‘ng bo‘sh vaqtini zavqli o‘tkazadi. Donishmandlarimiz aytganidek:“Zamon ishsiz va yalqov odamlarning beomon dushmanidir”. [4,105]

X va Y avlod dunyoqarashi asosan kitoblar va televizor ta‘sirida shakllangan bo‘lsa, raqamli avlodning qarashlarini internet shakllantirib, kelajakda ham bu jarayon davom etadi. Ta‘lim olish va tengdoshlari bilan muloqot ham onlayn formatda bo‘ladi. Bu bugunning ob‘ektiv haqiqati bo‘lib, raqamli avlod uchun internet hamma narsani biladigan nufuzli avtoritetga aylanishga ulgurdi. Raqamli avlodning deyarli har birida bir nechta ijtimoiy tarmoqda o‘z akkaunti bor. Yana bir e‘tiborli jihat – raqamli avlodning klipli tafakkur qilish xususiyatidir. Klipli tafakkur bu atrofdagi olamni kichik hajmdagi videokliplar, qisqa metrajli yangiliklar kanali yoki boshqa muqobil ko‘rinishda qisqa, rang-barang va yorqin bo‘yoqlarda idrok qilishidir. Klipli tafakkur egalari uchun katta hajmdagi ma‘lumot va axborotni qabul qilish muayyan qiyinchilik tug‘diradi. Turli axborotlarning juda ko‘pligi fikrni jamlash va o‘zlashtirish jarayonini murakkablashtiradi. Raqamli avlodda fan va texnikaga, xususan, muhandislik (injiniroing), axborot texnologiyalari, biotibbiyot, robotexnika va sun‘iy intellekt kabi sohalarga qiziqish yuqori. YouTube, Instagram, Snapchat va TikTok raqamli avlodning o‘zligini namoyon qilishning mediamakoni.

Kreativ (ijodiy) makon

Davlatga qarashli Kolumbin maktabida (Kolorado shtati, AQSh) sinf maydonini o'zgartirish bo'yicha tajriba o'tkazildi. Tadqiqot shiori: «Yangi o'rganish yangi sharoitlarni talab qiladi». Eksperimental dastur texnologiya va yangi o'qitish usullaridan foydalanishni o'z ichiga olgan. Jamoa o'z oldiga ta'limni shaxsiylashtirilgan, moslashuvchan va haqiqiy qilish vazifasini qo'ydi. O'quvchilar yig'ilib, butun dunyodagi tengdoshlari bilan muloqot qila oladigan yangi sinfga ko'p tarmoqli dam olish maskani – Skype Mountain o'rnatildi. Shuningdek, sinf xonasida o'quvchilarga mo'ljallangan kichik o'quv maydonlari va taniqli shaxslar hamda voqealar haqidagi qisqa, ilhomlantiruvchi tasvirli tarixlar to'plami bo'lgan «hikoyalar taxtasi» ham tashkil etildi.

Smart-doska va smart-stol

Amerika maktablarida (hozirda bizda ham) faol qo'llanilayotgan yana bir yangilik bu smart-doskadir. Aqlli taxtalar odatdagi doskalardek ishlaydi, faqat o'quvchi ularga bo'r bilan emas, balki raqamli markerlar bilan yozadi. Ba'zi turdagi taxtalar ulkan raqamli sensorli ekranlarga ega. Bolalar sizning darsingizda qanday qilib tasvirlarni erkin boshqarishini, odamning ichki organlarini o'rganishini yoki Yupiterning sun'iy yo'ldoshini kuzatishini tasavvur qiling-a! Smart-stol bir xil raqamli displey, faqat gorizontol holatda. U devordagi ma'lumotlarni o'qiydi va stol ustiga «qo'yadi», bu yerda bir guruh bolalar birgalikda vazifani hal qilishadi. Masalan, siz o'quvchilardan raqamlarni rang bo'yicha joylashtirishni yoki xaritada Afrikaning barcha mamlakatlarini belgilashni so'rashingiz mumkin. Umumiy maqsadga erishish o'quvchilarda XXI asrning asosiy ko'nikmalaridan biri bo'lgan jamoaviy ishlash mahoratini shakllantiradi. Aqlli stol, shuningdek, nogiron bolalar foydalanishi uchun moslashtirilgan. Bu «Z avlod»ni o'quv jarayoniga jalb qilish va zamonaviy ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun mukammal qurilma.

Aqlli kameralar

Uch yil oldin Xitoy maktablarida darsdan chalg'igan bolalarni aniqlashga yordam beradigan yuzni tanish tizimi ishga tushirildi. Ishlab chiquvchilarning fikricha, innovatsiya sinf o'quvchilarining darsga bo'lgan diqqat-e'tiborini oshiradi. Tizim uchta kamera yordamida o'quvchilarning yuz ifodalarini tahlil qiladi va faollik darajasini aniqlaydi. Yangi texnika allaqachon samaradorligini isbotladi – o'qituvchilar ish unumdorligi oshganini tez-tez e'tirof etishadi. To'g'ri, jarayon ishtirokchilari o'quvchilarning dahshatga tushganini, hatto kiprik qoqishdan ham qo'rqishganini aytishadi. Ammo, bunday bolalar tahlili hozircha oshkor qilinmagan. Kameralar ko'proq insonparvarlik ta'lim yondashuvlarida ham qo'llaniladi. Amerikadagi deyarli barcha maktablar sinf maydonini kengaytirish va ko'plab muammolarni hal qilish uchun Skype in Classroom dasturlarida foydalanadilar. Birinchidan, taklif etilgan o'qituvchilar o'z bilimlarini onlayn tarzda baham ko'rishadi. Bu maktab ma'muriyatining ham, o'qituvchining ham vaqti va pulini tejaydi. Ikkinchidan, ushbu texnologiya masofaviy o'qitish uchun samarali ishlaydi, bu ba'zi sabablarga ko'ra maktabga bora olmaydigan bolalarga o'rganish imkonini beradi.

Robototexnika va dasturlash

Ushbu texnologiyalardan foydalanish bolani zamonaviy texnologik dunyo sharoitlariga tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Robot qadriyatlaridan foydalanish va robototexnikani o'quv predmeti sifatida joriy etish, bu – dunyoni va tashkiliy qadriyatlarni yangicha idrok etish usuli. Ajoyib misol, robototexnika o'quv dasturining bir qismiga aylangan Italiyadir. Italiya boshlang'ich maktabida ushbu fanning besh yillik kursi ikki blokka bo'lingan. Dastlabki ikki yil davomida o'quvchilar masofadan boshqariladigan robot bilan ishlash orqali jarayonlarning mantiqiyliigi bilan tanishadilar. Keyingi ikki yilda ular o'zlarining mustaqil robotlarini loyihalash, yaratish va dasturlashni taklif qilishadi. Vazifalar LEGO Education WeDo platformasida (ilk ikki yil) va Lego NXT (qolgan uch yil)da hal qilinadi.

Bo'sh vaqtni tashkil etishda ota-ona namunasi, ularning kasb- kori muhim o'rin tutadi. Farzandlarni muhnat bilan band eti, kasb-hunar o'rgatish ota-onaning asosiy vazifasidir. Ota-ona kasbini o'rganish, ulardan eng yaxshi xislat va odatlarni egallashga intilish farzand uchun kundalik ehtiyojga aylanishi kerak. Ota-onadan maxsus vaqt topib, o'z tajribasini o'rgatishini, bilimli, kasb-hunari sirlaridan vaqib qilishini kutmaslik zarur[5,243].

Z avlod vakillariga “Ijtimoiy mediaplatformalar orqali qanday bilim yoki ko'nikmalarga ega bo'ldingiz?” deb yuzlandik. Respondentlar bilan internet tarmoqlarini salbiy va ijobiy taraflari haqida munozarada, aksariyat qismi ijobiy tomonlarini dalillar bilan aniq fikrlarini bildirdi.

Bexruz (univevrsitet talabasi, 24 yosh): “Internetsiz bir kunimni tasavvur ham qila olmayman, o'qishim, ishlarim bevosita bog'liq. Internet orqali ikkita horijiy tilni mukammal o'rgandim. Ijtimoiy tarmoqlarda turli olimpiadalar o'tkaziladi, ularda ishtirok etish orqali yangi bilimlar orttirdim. YouTube yordamida esa, HTML yaratish ko'nikmalariga ega bo'ldim hozirda o'zimni YouTube da kontentim mavjud, u yerda ingliz tilini tez va oson o'rgatish bo'yicha foydali videolavhalar joylayman, bu menga daromad keltiradi.”

Xumoyun (universitet talabasi, 22 yosh): “Bilasizmi, yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga yordam beradigan ijimoiy tarmoqlar ko'p, shuning uchun men sayt yaratish, QR li ma'lumotlarni kodlash va dekodlashni ular orqali o'rgandim. Men uchun ijtimoiy platformalarning foydali bo'lgan yana bir jihati men turli xalqaro onlayn kurslarda qatnashish orqali katta yutuqlarga erishdim. Internet yoshlarning ochilmagan qirralarini ochishida va turli IT ko'nikmalarni o'zlashtirishda tom ma'noda ijobiy rol o'ynamoqda. Salbiy tarafi haqida aytсам, odamlar ularga qaram bo'lib qolmoqda, yana ba'zi firibgar shaxslar, turli radikal guruh va sektalarning ta'siriga tushib qolish holatlari ham mavjud.”

Nigina (universitet talabasi , 23 yosh): “ Mening hayotimda internet katta o'rin egallaydi. Ijtimoiy tarmoqga ko'p vaqt sarflayman. Avvallari uni vaqtichog'lik uchun ishlatardim. Internetda fotosuratlarimni namoyish qilardim, do'stlar bilan suhbatlashish, turli kulgili vaynlarni (6 soniyali rolik) suratga olardim. Turmushga chiqqanimdan so'ng men faqat Instagram va Telegram ijtimoiy tarmoqlaridan muntazam foydalana boshladim. U yerda nonushta, tushliklarga foydali va tez tayyor bo'ladigan taomlarni tayorlash jarayonlarini videoga olaman. Shuningdek, Instagramdagi retseptlar tufayli turli millat taomlarini tayyorlashni, uyda 2 yoshli farzandimni rivojlantirishni, hatto xitoy tilini o'rgandim. Aytmoqchimaniki, internet orqali biz har doim barcha voqealardan xabardor bo'lib, o'zimizni turli sohalarda rivojlantirishimiz mumkin.”

Farangiz (universitet talabasi 20 yosh): “YouTube tufayli dunyoqarashim ancha kengaymoqda, bu platforma orqali ko‘p narsalarni o‘rganaman va kuniga 3-4 marta kiraman. Hamma narsa insonning o‘ziga, ya’ni uning ijtimoiy tarmoqlardan qanday maqsadda (ezgulik uchun yoki yomon niyatda) foydalanishiga bog‘liq. . Telegramni muntazam ishlatishimning sababi, u axborot almashish uchun eng maqbul vosita. Men uchun ilhom kalitidir, bu ilovadan men uchun qiziqarli bo‘lgan til o‘rganish, tikish, taomlar va moda mavzulari haqida ma’lumotga ega bo‘lish uchun foydalanaman.”

Ijtimoiy tarmoq va platformalar, ayniqsa hozirgi kunda nihoyatda ommaviylashib ketgan turli xil ilova va servislar O‘zbekiston internet foydalanuvchilarini ham chetlab o‘tmasligi tabiiy edi. Xususan, TikTok mana shundaylardan hisoblanadi. Undagi hayot reallikdan mutlaqo farq qiladi va boshqa o‘lchamda kechadi. TikTok alohida sayyora bo‘lib, uning o‘z aholisi va yulduzlari, o‘rnatilgan tartib va qoidalari, o‘ziga xos madaniyati (hulq-atvori, slengi, urf-odati) xullas, o‘ziga xos olami bor.

O‘zbek segmentining raqamli avlodi (Z va Alfa avlod) o‘rtasida bu ijtimoiy tarmoq elementlariga ega ilova nihoyatda mashhur. Har qanday yangilikka bo‘lgan kuchli qiziqish, uni o‘rganish va amalda qo‘llash ishtiyoqi yoshlarga xos bo‘lgan xususiyatdir. Shu bois TikToking katta auditoriyasini asosan 12 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan raqamli avlod tashkil etadi.

Internet noyob ijtimoiy fenomen. Raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan axborotlashgan asrda undan foydalanmaslikning iloji yo‘q. Uning imkoniyatlari va qulayliklari barchaga ma’lum.

Maqola sarlavhasidan kelib chiqib, xulosa o‘rinda pedogogika fanlari doktori, professor, ustoz M.Quronovning yoshlarga beradigan qimmatli bir tavsiyasini keltirishni maqul ko‘rdik: “Vaqt - odamning eng qimmatbaho boyligi. Buni bilmagan inson vaqtni tez o‘tkazish payida bo‘ladi. Iste’dod sohibi-chi, har soatdan foyda olib qoladi. Vaqtga o‘rmonda adashib, yoningizdan o‘tib ketayotgan, yelini sutga to‘la sigir, deb qarang. Undan bir yoki ikki chelak sut sog‘ib qolish yoki sigirning o‘tib ketishini kuzatib o‘tirishingiz ham mumkin. Shunday ekan, vaqtingizni bexuda o‘tkazmang”.

Yoshlar har qaysi mamlakatning ijodiy va innovatsion tafakkurga ega qudratli intellektual resursi bo‘lishi barobarida, raqamli texnologiyalar rivojlanishining asosiy omili hamdir. Internetning ijtimoiy tarmoqlaridagi ba’zi axloqsiz yoshlarni deb, barcha Z avlod vakillariga salbiy munosabatda bo‘lishga asos yo‘q. Bunday vaziyatda illatni internetdan emas, oiladan, mediatarbiyadan izlash kerak. Zero, har bir farzand ota-onaning aksidir. Internetni cheklash o‘rniga Z avlodni global tarmoqdan foydalanishga – mediamadaniyatga, mediaogohlikka o‘rgatish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Qodirov, M.Quronov [va boshqalar.] “Fazilatli avlod. Uzluksiz ma’naviy tarbiya trilogiyasi III qism. Toshkent: Muharrir nashiryoti,2019.
2. <https://censamm.org/resources/profiles/strauss-howe-generational-theory>
3. <https://www.mbaskool.com/fun-corner/popular/15150-generation-names-in-america-lost-gi-silent-baby-boomers-gen-x-millennials-gen-z.html>

4. Oz-oz o'rganib dono bo'lur. Donishmandlar bisotidan hikoyatlar, o'g'itlar, hikmatlar. – Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiёт va san'at nashriёti. 1998.
5. O. Musurmanova. Oila – jamiyat tayanchi: monografiya/ Toshkent: Yoshlar nashryot uyi, 2019.
6. Malikova, D. Q. (2022). XXI ASR–intellektual yoshlar asri. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 4-2), 253-258.
7. Malikova, D. Q. (2022). Oliy ta'lim muassasalarida uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayonining mazmuni. Eurasian Journal of Academic Research, 2(5), 317-321.
8. Маликова, Д. К. (2021). Таълим тизимида миллий ғоя фаннининг ацамияти. НамДУ илмий ахборотномаси, 21(3), 223-223.
9. Malikova, D. (2021). The role of education in the formation of ideological immunity in the world of youth in the example of finland. Интернаука, (19-5), 9-10.
10. Malikova, D. K. (2021). The role of book reading in protection of national and spiritual identity in the context of democratic reform. International Conference Science and Education, 1(1), 196-197.
11. Sultonov, F., Malikova, D. Q. (2021). Ёшлар дунёкарашида мафкуравий иммунитетни шакллантиришда тарбиянинг ўрни. Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар, 1(4), 7-9.
12. Маликова, Д. К. (2021). Ёшларда мафкуравий иммунитет ва ғоявий курашчанликни шакллантиришнинг асосий жиҳатлари. XXI аср – интеллектуал ёшлар асри, 1(1), 307-308.
13. Маликова, Д. К. (2021). Систематический анализ идеологический процессов. Innovation In The Modern Education System, 4(1), 397-402.
14. Malikova, D. Q. (2021). Globallashuv jarayonida yoshlar mafkuraviy immunitetini shakllantirish masalalari. The XXI Century Skills for Professional Activity International Scientific-Practical Conference, 1(1), 229-230.
15. Маликова, Д. К. (2021). Биринчи ренессансинг маънавий тарбиявий таълимотига бир назар. Масофавий таълимни ташкил этишнинг педагогик-психологик жиҳатлари, 1(1), 617-621.
16. Malikova, D. Q. (2021). Sharq milliy mafkurasi rivojida g'arbiy yevropa mafkurasining o'rni. O'zbekistonning umidli yoshlari, 1(1), 94-95.
17. Malikova, D. K. (2021). Ideology in the modern world a choice between the gap and the future. Eurasian Journal of Academic Research, 1(1), 752-759.
18. Malikova, D. Q. (2021). Ommaviy madaniyatga qarshi kurashda mafkuraning o'rni. Polish Science Journal, 3(36-4). 55-57.
19. Malikova, D. Q. (2021). Milliy mafkuramizni kuchaytirishda insonparvarlikning o'rni. Образование и наука в XXI веке, 2(11), 46-49.
20. Маликова, Д. К. (2021). Гуманитарная интервенция: между суверенитетом государства и правами человека. Студенческий вестник, (18-5), 37-40.
21. Маликова, Д. К. (2021). Духовно- идеологический процесс в современных условиях. Образование и наука В XXI веке, 2(11), 89-95.

22. Malikova, D. Q. (2020). Milliy mafkurani yoshlar ongiga singdirish usullari. Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар, 1(2), 7-8.
23. Jumayev, S. S., Malikova, D. Q. (2020). Ta'lim-tarbiyaga e'tibor-yangi O'zbekiston taraqqiyotining asosiy omili. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari, 1(1), 168-170.
24. Холёрова, М. С., Маликова, Д. Қ. (2020). Етук мутахассис кадрларни шаклланишида оиладаги ижтимоий-маънавий муҳитнинг ўрни. Глобал ҳамкорлик - барқарор ривожланиш шarti ва кафолати, 1(1), 173-176.